

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**"Tasdiqlayman"**

**Toshkent arxitektura-qurilish  
akademik faoliyat bo'yicha  
prorektori v.b**

**R.Xadjayev**

**06 2025-yil**



**2025-2026 O'QUV YILIDA IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY  
TA'LIMGA QABUL QILISH UCHUN SUHBAT DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONLARI**

**TOSHKENT-2025**

## **Annotatsiya**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 24-sentabrdagi 606-son qarori ilovasiga muvofiq tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to‘g‘risida Nizom” ijrosini ta’minalash maqsadida oliy ma’lumotga ega bo‘lgan bakalavr (diplomli mutaxassis) darajasiga ega shaxslarning ish faoliyati u hujjat topshirgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bilim darajasini aniqlaydigan savollar shakllantirilgan.

Dastur 2025/2026 o‘quv yili Toshkent arxitektura qurilish universiteti qabul jarayonida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga kiruvchilar uchun mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati, ahamiyati, maqsadi, mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalari, sohada bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligini aniqlash uchun tuzilgan.

## **Suhbat jarayonini o‘tkazish**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti qabul komissiyasi raisi tomonidan oliy ma’lumotga ega bo‘lgan bakalavr (diplomli mutaxassis) darajasiga ega shaxslar bilan suhbat o‘tkazish bo‘yicha alohida Suhbat komissiyasi tashkil etiladi.

Suhbat komissiyasi 7 nafardan kam bo‘lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga soha bo‘yicha yuqori malakali professor-o‘qituvchilar, soha mutaxassislar hamda ish beruvchi tashkilotlar va oliy ta’lim muassasasi bo‘ysunuvi bo‘yicha vazirlik va idoralardan vakillar kiritiladi.

Oliy ma’lumotga ega bo‘lgan bakalavr (diplomli mutaxassis) darajasiga ega shaxslar bilan suhbat jarayoni to‘liq videokuzatuv ostida o‘tkaziladi va jarayonlar kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga onlayn translyatsiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to‘liq videokuzatuv ostida o‘tkazilishi va videoyozuvlarning kamida uch yil oliy ta’lim muassasasida saqlanishini ta’minalash mas’uliyati akademik ishlar prorektori zimmasiga yuklanadi.

Suhbat jarayoni har yili 20-avgustdan 30-avgustgacha, oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o‘tkaziladi.

Suhbat o‘tkazish jadvali oliy ta’lim muassasasi rasmiy veb-saytida suhbat o‘tkazilishidan kamida 3 kun avval joylashtiriladi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

Uzrli sabablarga ko‘ra (sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra, belgilangan shakldagi tibbiy xulosa asosida) suhbatga kelmagan abituriyentlar uchun takroriy suhbat muddati oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi hamda oliy ta’lim

muassasasining rasmiy veb-saytida takroriy suhbat o'tkazilishidan kamida 3 kun avval e'lon qilinadi.

### **Suhbatda oliy ma'lumotga ega bo'lgan bakalavr (diplomli mutaxassis) darajasiga ega shaxslarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida beriladigan savollar**

Suhbat jarayonida oliy ma'lumotga ega bo'lgan bakalavr (diplomli mutaxassis) darajasiga ega shaxslarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati;
- belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashdan asosiy maqsad;
- belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalari;
- belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasida bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

Suhbatda oliy ma'lumotga ega bo'lgan bakalavr (diplomli mutaxassis) darajasiga ega shaxsning savollarga to'liq va aniq javob berishiga, mustaqil tahlil qila olishi, xulosalarni shakllantirishi bo'yicha layoqat darajasiga alohida e'tibor qaratiladi.

### **Suhbatda oliy ma'lumotga ega bo'lgan bakalavr (diplomli mutaxassis) darajasiga ega shaxslarni baholash mezoni**

Oliy ma'lumotga ega bo'lgan bakalavr (diplomli mutaxassis) darajasiga ega shaxslarni to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbat og'zaki shaklda o'tkaziladi. Har bir abituriyentga 4 tadan savol beriladi. Har bir savolning javobiga 25 ballgacha ball qo'yiladi.

Savollarga javoblar abituriyentning ushbu soha yuzasidan layoqati, dunyo qarashi va o'z kasbiga bo'lgan munosabat darajasini ko'rsatadi. Baholash mezoni quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi:

Savollarga javobning aniqligi, to'liqligi, savolni mustaqil tahlil eta olishi, xulosalarni shakllantirish bo'yicha layoqat darajasi baholanadi.

Suhbatdagi savollarga javobning baholash mezoni quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi:

86-100	86 baldan 100 balgacha, a'lo
71-85	71 baldan 85 balgacha, yaxshi
55-70	55 baldan 70 balgacha, qoniqarli
0-54	54 ball va undan kam ball, qoniqarsiz

Har bir savolga berilgan javobni baholash mezoni quydagicha belgilanadi:

Abituriyentning savollarga javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha misollar keltira olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini to'liq olib bera olsa, xulosa va qaror qabul qilsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa.	22-25
b) berilgan savolni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, misol keltira olsa, o'z fikrini yetarlichcha, ravon bayon qila olsa.	18-21
v) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa.	14-17
g) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'limasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa.	0-13

Muayyan ta'limga yo'nalishi bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach, Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan qo'yilgan ballar hisoblab chiqiladi va Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan qaydnomaga kiritib boriladi. (1-ILOVA)

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan qaydnomaga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 55 balldan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi. (2-ILOVA)

Muayyan ta'limga yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

Oliy ta'limga muassasasida suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga qabul komissiyasi faoliyatida ishtirok etmagan oliy ta'limga muassasasi xodimlari orasidan komissiya raisi va to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Abituriyent apellyatsiyani ko'rib chiqishda ishtirok etishi mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi abituriyentning apellyatsiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi hamda uning qabul komissiyasi va

abituriyentga yetkazilishini ta'minlaydi

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Ta'lif to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lifni olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 24-sentabrdagi 606-son qarori

**Internet saytlari:**

5. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.